



## HAMKORLIKDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI ORQALI BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Ibragimova Oybachin Ismoil qizi

Nuraliyeva Shahodat Safar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirishda hamkorlikda o‘qitish (collaborative learning) texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan hamkorlikda o‘qitish jarayoni talabalarda muloqot madaniyati, o‘zaro fikr almashish, jamoada ishlash va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**Kalit so‘zlar:** hamkorlikda o‘qitish, kommunikativ kompetentlik, integratsion ta’lim, tarbiya fani, innovatsion texnologiyalar, kasbiy rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и значение технологии совместного обучения (collaborative learning) в формировании коммуникативной компетентности будущих преподавателей предмета «Воспитание». Процесс совместного обучения, организованный на основе инновационных подходов, способствует развитию у студентов культуры общения, навыков взаимодействия, командной работы и социальной адаптации.

**Ключевые слова:** совместное обучение, коммуникативная компетентность, интеграционное образование, педагогика воспитания, инновационные технологии, профессиональное развитие.

**Abstract:** This article analyzes the role and significance of collaborative learning technologies in developing the communicative competence of future teachers of the subject “Education and Upbringing.” The collaborative learning process, organized on the basis of innovative approaches, helps students develop communication culture, interaction skills, teamwork abilities, and social adaptability.

**Keywords:** collaborative learning, communicative competence, integrative education, pedagogy of upbringing, innovative technologies, professional development.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Milliy o‘quv dasturida ta’lim jarayonini shaxsga



yo'naltirilgan, hamkorlik va ijodkorlik asosida tashkil etish zarurligi ta'kidlangan [8]. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi nafaqat bilim egasi, balki o'quvchi bilan to'g'ri muloqot qura oluvchi, muammoli vaziyatlarni hal etishda jamoani boshqara oluvchi mutaxassis sifatida shakllanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etishda o'qituvchi-sinf, o'qituvchi-kichik guruh, o'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi (juftlikda ishlash), kichik guruh-kichik guruh, kichik guruh-sinf kabi shakllardan foydalaniladi.

Hamkorlikda o'qitish - bu o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro samarali hamkorlikni tashkil etishidir. Bu jarayon o'quvchilarning ham bir-birini qo'llab-quvvatlovchi, o'zaro o'rganishga yo'naltirilgan faoliyatini anglatadi. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari quyidagilardan iborat.

- Hamkorlikda fikr almashish;
- Suhbat;
- Tahlil;
- Munozara;
- Muzokara;
- Amaliy vazifalar bajarish;
- Biror narsani qurish (yasash);
- Masalalar yechish vaboshqalar.v

Bu texnologiyalar quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- o'quvchilarning o'rganish jarayonini boyitadi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish va almashish imkonini yaratadi;
- o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- muloqot va axborot almashish madaniyatini oshiradi;
- o'quvchilarning ijtimoiy faolligini va mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Hamkorlikda ishlash bir nechta shakllarga bo'linadi.

Kichik guruhlarda ishlash - 3-5 kishilik jamoalarda muammoni hal etish, qaror ishlab chiqish, juftlikda o'qitish - "fikr juftligi", "intervyu" kabi usullar orqali muloqotni



## Learning and Sustainable Innovation

rivojlantirish, “Aqliy hujum” va “debate” metodlari - ijodiy fikrlash va mantiqiy dalillashni rivojlantirish; “Rol o‘ynash” - tarbiyaviy vaziyatlarda o‘qituvchi va o‘quvchi rollarini bajarish orqali empatiyani oshirish. Tajriba asosidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, hamkorlik asosida o‘qitilgan talabalar o‘z fikrini ochiq ifoda eta oladi, jamoada mas’uliyatni sezadi va o‘zaro hurmat tamoyillariga amal qiladi [10].

Bu esa kelajakda ularning pedagogik faoliyatida muloqot madaniyatini mustahkamlaydi. Shuningdek, integratsion yondashuv ham bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Tarbiya fanining psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlari bilan uyg‘unligi talabalarda kompleks fikrlashni, holatni tahlil qilishni va to‘g‘ri kommunikativ qaror qabul qilishni rivojlantiradi [7].

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos pedagogik, psixologik va uslubiy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagilar: tashkiliy-pedagogik asoslari - o‘quv reja, v dastur, dars mavzusi, DTS talablari va ularga muvofiq darajada o‘zlashtirilishi talab qilinadigan yangi bilim hajmi asosida o‘quv mashg‘uloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit, imkoniyatlarni belgilash va amalga oshirish; psixologik asoslari - o‘quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish, mashg‘ulotda har bir o‘quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratish, erkin muloqotni sifatli uyushtirishda dars mavzusi, mazmuni, qo‘llanilayotgan tushunchalar, atamalar, ta’riflar, formulalar va boshqa shartlarning o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlash; uslubiy asoslari - mashg‘ulot uchun zarur vositalarni oldindan ishga tayyorlash, ularning talablar darajasida sifatli bo‘lishini ta’minlash. Muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish va boshqalar[6].

Hamkorlikda o‘qitish bo‘lajak tarbiyachilarda quyidagi kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi:

1. Til va nutq kompetensiyasi - fikrni aniq, mantiqan va madaniyatli ifoda etish;
2. Ijtimoiy kompetensiya - jamoada ishlash, turli fikrlarni hurmat qilish;
3. Emotsional kompetensiya - his-tuyg‘ularni boshqarish va empatiya ko‘rsatish;
4. Refleksiv kompetensiya - o‘z faoliyatini tahlil qilish va o‘zini rivojlantirishga intilish. Slavin o‘z tadqiqotida hamkorlikda o‘qitishning motivatsion va kommunikativ jihatdan katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [9].

Xulosa qilib aytganda, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi - bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda innovatsion va samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiya asosida ta’lim jarayonini tashkil etish talabalarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiribgina qolmay, ularda jamoaviy muloqot va fikr almashish madaniyatini o‘stiradi, kasbiy va shaxsiy o‘sish



uchun zarur bo'lgan kommunikativ malakalarni rivojlantiradi. Kelgusida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini raqamli ta'lim muhitiga integratsiya qilish, onlayn platformalarda qo'llash va interaktiv treninglar orqali takomillashtirish istiqbolli yo'nalishlardan biri sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent: Adolat, 2020.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2019.
3. Qurbonov S. Kasbiy kompetensiya va uni rivojlantirish metodikasi. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
4. Turg'unov S. Pedagogik mahorat va muloqot madaniyati. - Toshkent: TDPU, 2020.
5. Slavin, R.E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. - Boston: Allyn & Bacon, 2014.
6. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.
7. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.
8. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.
9. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G 'AZZOLIY ASARLARIDA "YOLG 'ON SO 'ZLASH VA YOLG 'ON QASAM ICHISH" YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(35), 505-510.
10. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(35), 511-516.